

MOTIVATSIYA VA MOTIVLARNI O'RGANISH METODLARI

Yo'ldashova Marjona Bahodir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Marjonayoldashova786@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15179510>

Annotatsiya: Mazkur maqola mativatsiya va motivlarni o'rganish metodlariga bag'ishlangan bo'lib, inson faoliyatining harakatlantiruvchi kuchlari, motivlarning shakllanish jarayoni hamda ularga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Motivatsiya shaxsning ichki va tashqi rag'batlantiruvchi omillar ta'sirida qanday rivojlanishi, uning individual xususiyatlari va tashqi muhit sharoitlari bilan qanday bog'liqligi haqida fikr yuritiladi. Maqolada motivatsiya tushunchasi psixologik, sotsiologik va menejment nuqtai nazaridan keng yoritilib, motivlarning turlari, ularni aniqlash va tahlil qilish usullari keltirilgan. Xususan, motivatsiyani o'rganishda eksperimental, kuzatish, test sinovlari, intervyu va so'rovnomalardan foydalanish usullari afzallik va kamchiliklari, ilmiy tadqiqotlarda qo'llash imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Mativatsiya, motiv, rag'batlantirish, psixologik tahlil, motivatsion metodlar, ichki va tashqi omillar, shaxsiy rivojlanish, xulq-atvor, menejment, ta'lim, eksperimental tadqiqot, so'rovnoma, intervyu, test sinovlari, kuzatish usuli.

Abstract: This article is devoted to the methods of studying motivation and motives, analyzing the driving forces of human activity, the process of formation of motives and the factors influencing them. It considers how motivation develops under the influence of internal and external motivating factors of a person, how it is related to his individual characteristics and external environmental conditions. The article comprehensively covers the concept of motivation from a psychological, sociological and management perspective, presents the types of motives, methods for their identification and analysis. In particular, the advantages and disadvantages of using experimental, observational, test tests, interviews and questionnaires in the study of motivation, and the possibilities of their application in scientific research are discussed.

Keywords: Motivation, motive, incentive, psychological analysis, motivational methods, internal and external factors, personal development, behavior, management, education, experimental research, questionnaire, interview, test tests, observation method

Аннотация: Статья посвящена методам изучения мотивации и мотивов, анализу движущих сил деятельности человека, процесса формирования мотивов и факторов, на них влияющих. Рассматривается, как мотивация развивается под влиянием внутренних и внешних мотивирующих факторов, как она связана с индивидуальными особенностями и условиями внешней среды. В статье широко рассматривается понятие мотивации с психологической, социологической и управленческой точек зрения, представлены виды мотивов, методы их выявления и анализа. В частности, обсуждаются преимущества и недостатки использования экспериментальных, наблюдательных, тестовых, интервью- и анкетных методов в изучении мотивации, а также возможности их применения в научных исследованиях.

Ключевые слова: Мотивация, мотив, поощрение, психологический анализ, мотивационные методы, внутренние и внешние факторы, личностное развитие,

поведение, управление, образование, экспериментальное исследование, анкетирование, интервью, тест, метод наблюдения.

KIRISH: O'tkan asrlarda psixologlar motivlarni tushuntirishda va uning tarkibiy qismlarini belgilashda dinamik va ma'naviy tomonlarining uyg'unligidan kelib chiqqan holda talqin qiladilar. Ularning ayrim namoyandalari qarashlarini tahlil qilish bilan cheklanamiz, xolos. S.L.Rubinshteyn motivning psixologik mohiyati to'g'risida quyidagi mulohazalarni bildiradi. Motivatsiya-bu psixika orqali hosil bo'ladi. Motiv-bu shaxs xulq-atvorining kognitivistik jarayonini bevosita tashqi olam bilan bog'lovchi sub'ektiv tarzda aks etish demakdir. "Motiv inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil. Motiv shaxsni harakatga faoliyatga undovchi ehtiyojining yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqalar motivlar jumlasiga kiradi". Bizningcha, shaxs o'zining motivlari yordamida borliq bilan uzviy aloqada bo'ladi. Insonning xulq-atvorni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'luvchi motivlar shaxsning tuzilishida yetakchi o'rin egallaydi. Motivning tuzilish tarkibiga shaxsning yo'nalishi, uning xarakteri, emotsional holati qobiliyati, ichki kechinmalari, faoliyati va bilish jarayonlari kiradi. Psixologiya fanida to'plangan nazariy ma'lumotlarning ko'rsatishicha, shuningdek, bir qator psixologlarning fikricha, xarakter shaxs motivlarining dinamik tomonlari asosini tashkil qiladi, degan ta'limot mavjud. Jumladan, xarakterning tavsiflarni tashkil qilsa, qolganlari esa faqat dinamik xususiyatli tavsiflarni tashkil qilsa, qolganlari esa faqat dinamik tabiatnigina emas, balki uning ma'naviy va ma'naviy jabhalarini ham yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Motivatsiya inson xulq atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablari majmuini bildiradi. Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o'zaro mustaqil bog'langan nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi; a] Individdning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sabablar sifatidagi motivlashtirishdir. Faollik holatini paydo bo'lishini sub'ektiv ehtiyojlarini izohlab beradi. b] Motivlashtirish faollik kimga qaratilgan boshqa xulq-atvor emas, balki xuddi shunaqasi tanlanganligini izohlab beradi. Motivlar xulq-atvor yo'nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bunday xatti-harakatlarni yana takrorlanishini oldindan ko'ra olish, shaxsiy holatlarning ayrimlarini yuzaga keltirmaslikning oldini olish, boshqalarning taraqqiy etishini qo'llab-quvvatlash mumkin. Ba'zilar mehnatga o'z ehtiyojlariga ko'ra sidqidildan munosabatda bo'lsalar, ba'zilar o'z burchlarini anglaganliklaridan, yana ba'zilar o'zlarining qobih niyatlariga erishish uchun vaqtincha sun'iy munosabatda bo'ladilar. Motivatsiya-odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui bo'lib, xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayonini hisoblanib unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Insonni xatti-harakati va ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sababga motiv deyiladi. Odamning faoliyat motivlarini o'rganish shaxsning ma'naviy psixologik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Kishilarning xulq-atvoriga qarab, uning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning motivlarini aniqlashga intilish lozim. Shunda xatti-harakatlarni odam uchun tasodifiy yoki qonuniy ekanligini anglash mumkin bo'ladi.

Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muommosi, ayniqsa shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. R.S.Vaysman shaxs motivatsion sohasida tizimli munosabatlarni juda qiziq tasnifini keltiradi. Ammo ajratilgan

munosabatlar qatorini boshqaruv, tartiblashtirilganlik va shu kabi munosabatlar bilan to'ldirish mumkin. Qolaversa R.S.Vaysman motivatsion o'zgaruvchilar o'rtasidagi tizim hosil qiluvchi asosiy munosabatni ajratmagan, bir turdagi va har xil turdagi motivatsion hodisalarni bir-biridan farqlamagan. Chet el olimlarning motivatsiya sohasidagi tadqiqotlar orasida G.Olportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformasiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida talqin etiladi.

NATIJALAR

Motivatsiyaning asosiy nazariyalari.

Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi-inson ehtiyojlarini besh bosqichga ajratadi:, xavfsizlik, ijtimoiy, hurmat va o'zini o'zi namoyon qilish ehtiyojlari.

Mak Kllandning motivatsiya nazariyasi-asosiy uch motiv mavjud yutuqga intilish, hokimiyat istagi va bir guruhga tegishlilik.

Gersbergning ikki omili nazariyasi- ish joyidagi qoniqish va norozilikka ta'sir qiluvchi motivator va gigiyenik omillar mavjudligini ta'kidlaydi.

Vrumning umid nazariyasi-odamlarning maqsadga erishish uchun harakat qilishi, natijalarga bo'lgan umidga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Motivlarni o'rganish metodlari asosan ular bir nechta metodlarga bo'linadi. Kuzatish metodi-ushbu metod insonning xatti-harakatlarini tabiiy sharoitda kuzatish orqali uning motivlarini aniqlashga asoslanadi. Masalan, ish joyidaega ekanligini tushunish mumkin. Suhbat metodi-motivlarni aniqlash uchun intervyu va suhbatlar eng samarali usullardan biridir Suhbat davomida inson o'z ehtiyojlari, maqsadlari va motivlari haqida ma'lumot beradi. Anketa va so'rovnomalar-ko'p hollarda motivatsiyani o'rganish uchun maxsus so'rovnomalar tuziladi. Ushbu metod katta hajmdagi respondentlar orasida keng miqyosda tadqiqot olib borishga imkon beradi. Eksperiment-tajribaviy metod bo'lib, odamlar turli sharoitlarda qanday motivatsiyaga ega ekanligini aniqlash uchun ishlatiladi. Masalan, ish haqi yoki rag'batlantirish tizimining ta'siri tadqiq qilinishi mumkin. Psixologik testlar-motivatsion testlar orqali insonning shaxsiy xususiyatlari va ichki ehtiyojlarini o'rganish mumkin. Bu usul odatda psixologlar tomonidan qo'llaniladi.

Motivatsiya— bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma'lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to'xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda agent ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta'minlovchi paradigmatic ruhiy holat - bu istak. Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e'tiqodlar ham motivatsiyani ta'minlashi mumkin. Motivatsiya "motiv" so'zidan olingan bo'lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayonidir. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo'lgan xohishni o'z ichiga olishi mumkin.

Motiv - inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil, vaj motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida Motiv atamasi sub'yektni faollashtiruvchi turli hodisa va

holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo'lgani tufayli u faoliyatning maqsadi va Motivatsiya orqali boshqariladi. Ba'zan "Motivatsiya" tushunchasini "emotsiya", "maqsad", "ustanovka" atamaları bilan almashtirish hollari uchraydi. Goho turtki, qo'zg'ovchi, undovchi tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

MUHOKAMA

O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalarfi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: 1. Ichki manbalar. Ular insonning tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi tug'ma axborot olishga bo'lgan ehtiyojdir. Orttirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi. 2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Talablar ularning birinchisi bo'lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulqatvorini bildiradi. Bog'cha, maktab, oila boladan juda ko'p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Ijtimoiy kutish jamiyatning har birimizdan ma'lim bilimlar, ko'nikmalar darajasinign bo'lishi zarurligini bildiradi. Masalan bir yoshli bola yurishi kerak, 7 yoshida u o'qishi kerak, 15 yoshida u kasb tanlashi kerak, deb hisoblaymiz.

Motivatsiya — inson psixologiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan jarayon bo'lib, uni o'rganish va boshqarish bir qancha metodlar orqali amalga oshiriladi.

Ma'lum maqsad qo'yish - maqsadlarni aniq va o'lchab bo'ladigan qilish motivatsiyani oshiradi. "Men yaxshiroq bilim olishim kerak" kabi noaniq maqsadlar o'rniga, "Men 3 oyda ingliz tilini o'rganishni boshlayman" kabi aniq va o'lchovli maqsadlarni belgilash samarali bo'ladi.

Ichki motivatsiyani kuchaytirish — bu o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan harakatlardir. Masalan, kitob o'qishdan yoki sport bilan shug'ullanishdan zavq olish. Shaxsiy qiziqishlaringizni va ehtiyojlaringizni aniqlash, ularni rivojlantirish va shu asosda harakat qilish motivatsiyangizni oshiradi.

Kichik maqsadlar qo'yish - katta maqsadlarni kichik qismlarga ajratib, ularga erishish orqali motivatsiyani saqlab qolish mumkin. Kichik maqsadlar orqali muvaffaqiyatni tez-tez boshdan kechirish, odamni motivatsiya bilan ta'minlaydi. Masalan, katta loyiha ustida ishlashda biror-bir bosqichga erishish va bu bosqichni muvaffaqiyat deb hisoblash.

Tashqi mukofotlar - motivatsiya oshirishda tashqi mukofotlar ham muhim rol o'ynaydi. Mukofotlar insonni maqsadlariga erishishga undaydi. Mukofotlar moddiy (pul, sovg'alar) va ma'naviy (tan olinish, izzat) bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini tahlil qilish - o'z harakatlaringizni, yutuqlaringizni va muvaffaqiyatsizliklaringizni tahlil qilish motivatsiyani oshirishga yordam beradi. O'z-o'zini baholash orqali, siz o'z kuchli va zaif tomonlaringizni aniqlay olasiz. Bu o'z-o'zini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ijoiy fikrlar va tasavvurlar - pozitiv fikrlar va tasavvurlar orqali motivatsiyani oshirish mumkin. Muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini ko'rish, salbiy fikrlarni chetlatish va ijobiy energiyani o'z ichiga olgan fikrlarga tayanish, insonni harakatga keltiradi.

Tashqi muhit va qo'llab-quvvatlash - odamlarni o'z maqsadlariga erishishda yordam beradigan ijobiy muhit yaratish ham juda muhimdir. Yaxshi do'stlar, oila, ustozlar va qo'llab-quvvatlovchi guruhlar motivatsiyani oshirishi mumkin.

XULOSA

Motivatsiya har bir insonning hayotida muvaffaqiyatga erishish va maqsadlariga erishish uchun juda muhim omildir. Motivatsiyaning ikki asosiy turi mavjud: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya odamning o'z qiziqishlari, ehtiyojlari va shaxsiy maqsadlariga asoslanadi, tashqi motivatsiya esa tashqi rag'batlar, mukofotlar va tan olishga tayanadi. Ikkala motivatsiya turi ham insonni harakatga keltiradi, lekin ularning ta'siri va samaradorligi har xil bo'lishi mumkin. Motivatsiyani oshirish uchun turli metodlar mavjud. Aniq va o'lchovli maqsadlar qo'yish orqali odamlar o'z yo'lida qanday qadamlar qo'yishlari kerakligini bilib olishadi va bu motivatsiyani kuchaytiradi. Kichik maqsadlarga erishish ham o'z navbatida odamni yangi yutuqlar sari undaydi. Ichki motivatsiya, ya'ni o'z qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda harakat qilish esa eng samarali metodlardan biridir. Bundan tashqari, tashqi mukofotlar va rag'batlar ham motivatsiyani oshirishi mumkin. Masalan, muvaffaqiyatga erishganda mukofot olish, tan olinishi yoki boshqalar tomonidan qo'llab-quvvatlanish insonni yanada ko'proq harakat qilishga undaydi. Ijobiy fikrlar va tasavvurlar orqali muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari yaxshilanadi va inson o'zining salbiy fikrlarini chetlatadi. Motivatsiya bilan ishlashda o'z-o'zini tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Inson o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish orqali muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Shuningdek, ijobiy muhit yaratish va boshqalarning qo'llab-quvvatlashi motivatsiyani saqlab qolishga yordam beradi. Bundan kelib chiqqan holda, motivatsiya nafaqat maqsadlarga erishish, balki o'z-o'zini rivojlantirish va ruhiy holatni yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega. Har bir inson o'ziga mos motivatsiya metodlarini topishi, ularni samarali qo'llashi va o'z maqsadlariga erishishda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Motivatsiya — bu faqat harakatga keltiruvchi kuch emas, balki o'zgarishga, rivojlanishga va o'z hayotini yanada yaxshi qilishga undovchi eng muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. G.M.Daulatova, M.T.Nasiratdinova (Motivatsiya va Motivlarni o'rganish metodlari
2. Ch.B.Bekchanova (Motiv va Motivatsiya
3. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova (2018
4. Motivatsiya va Motivlarni o'rganish metodlari(2022
5. Sharipova, N. (2023). PHONETICS: UNLOCKING THE SOUNDS OF LANGUAGE. В ZDIT (T. 2, Выпуск 27, сс. 22–24). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10321056>
6. Sharipova Nodira Shavkat Qizi, . (2024). TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS USING CLIL METHOD IN CLASS. International Journal of Pedagogics, 4(06), 161–164. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue06-29> .
7. Abdurasulov, J. (2024). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (T. 4, Выпуск 7, сс. 38–40). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12721051>
8. Abdurasulov J. (2024). HARBIY PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. Молодые ученые, 2(6), 48–52. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/yo/article/view/28164>
9. Jo'rayev, S. ., & Abdurasulov, J. (2024). SUBJECT, TASKS AND CONTENT OF STUDYING THE

BASICS OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(7), 149–153.извлечено.

10. Абдурасулов, Ж. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХТЕХНОЛОГИЙ В УСВОЕНИИ УРОКОВ ИСТОРИИ.

11. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(1), 50–53. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/42882> 13.

12. Жўраев , Ш. ., & Абдурасулов , Ж. (2024). ҲАРБИЙ ЖАМОАДАГИ ИЖТИМОЙИЙ ФИКР. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(2), 97–103. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/view/28151>.

13. Abdurasulov , J. (2022). HARBIY KOMPETENSIYA KURSANTNING KASBIY MAHORATINI 54 SHAKLLANTIRISHNING KALITI SIFATIDA. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(11), 231–234. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/5326> 17.

14. Abdurasulov , J. (2022). SHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Евразийский журнал академических исследований, 2(11), 983–988. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/5305> .

15. Абдурасулов , Ж. (2024). ҲАРБИЙ ЖАМОАНИНГ ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(2), 59–65

16. Abdurasulov J., & Pardabayeva , M. (2024). MUSOBAQADAN OLDIN SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(6 Part 2), 73–76. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/34717>

17. Abduqodirova Dilobarbonu Erkinjon Qizi TALABALARDA PSIXOLOGIK STRESSNI YENGISH // YOPA. 2025. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarda-psixologik-stressni-yengish> (дата обращения: 02.04.2025).

18. Usarboyeva D. The importance of innovative educational methods in organizing the educational process //Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany). – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 184-187.

19. Usarboyeva, D. (2024). Talabalarning akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlari. Таълим тизимида ижтимоийгуманитар фанлар, 1(1), 74-77. 31.

20. Абдусаматова, Ш. С. (2024). Роль психологии в формировании толерантности у студентов. IMRAS, 7(7), 39-43.

21. Abdusamatova, S. S. (2024). Tolerantlikning shaxsiy omillari. Inter education & global study, (5 (1)), 487-489.

22. Abdusamatova, S. S., & Sultonqulova, G. F. (2023). Ehtiyojlar va faoliyatning o'zaro bog'liqligi. Евразийский журнал академических исследований, 3(3 Part 3), 65-69.

23. Abdusamatova, S. (2023). Description of modern concepts of emotional intelligence. Science and innovation, 2(B11), 524-529.

24. Abdusamatova, S. (2023). Mechanism of innovation in the field of lifelong education. Science and innovation, 2(B1), 341-344.

25. Abdusamatova, S. (2023). Some aspects of self-development and self-knowledge, and effective assessment methods. *Science and innovation*, 2(B5), 420-423.
26. Meylieva, M. S. (2024). Talabalarga individual ta'lim yondashuvlari asosida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish. *Pedagog*, 7(2), 381-384.
27. Meyliyeva, M. S. (2024). Specific aspects of the formation of student professional motivation through an individual approach. *International education and innovative sciences*, 1(9), 347-357.
28. K.O. Arzibayev, V.Sh.Rahimov Effects On Performance By Electronic Training Equipment For Young Karatists. «Psychologi and education» Journal (2021) 58(2): 11488-11490 ISSN: 00333077
29. K.O. Arzibayev, V.Sh.Rahimov Influence of Basketball on the Mental and Physical Development of the Personality. «International Journal of Future of Generation Communication and Networking» Vol. 14. No. 1. (2021). pp. : 768-772 ISSN: 2233-7857 IJFGCN
30. Arzibaev, K. O., & Rafiqov, A. U. (2021). THE ROLE OF MATHEMATICS IN SPORTS. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ (pp. 5-8).
31. Arzibaev, K. O., & Tanikulova, Z. R. (2021). MECHANISMS FOR IMPROVING THE LEGAL KNOWLEDGE OF ATHLETES. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ (pp. 117-119).
32. Arzibaev, K. O., & Elmurodova, M. U. (2021). DEVELOPMENT IN SPORTS USING UNIQUE TECHNIQUES. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ (pp. 3-5).
33. ARZIBAYEV, Q. (2024). O 'SMIR SPORTCHILARDA MAQSADGA ERISHISH MOTIVATSIYASI TADQIQI. *News of the NUUZ*, 1(1.9), 54-57.
34. Арзибаев, К. О. (2015). РОЛЬ МОТИВАЦИИ В ЕДИНОБОРСТВЕ. *Наука и мир*, (3-3), 103-105.
35. Арзибаев, К. О., & Аралов, С. А. (2016). КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Наука и мир*, 3(1), 53-54.
36. Арзибаев, К. О., & Акбарова, Д. Р. (2016). Проблема здорового образа жизни в исследованиях. *Наука и мир*, (3-3), 77-78.
37. Арзибаев, К. О. (2013). МОТИВАЦИЯ ДОСТИЖЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *SCIENCE AND WORLD*, 93.
38. Арзибаев, К., & Бердалиева, Ю. (2013). ВЛИЯНИЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА МОТИВАЦИЮ ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ. *SCIENCE AND WORLD*, 14.
39. Arzibayev, Q. (2023). THE PROBLEM OF MOTIVATION OF SPORT ACTIVITY IN THE ANALYSIS. *European journal of education and applied psychology*, (2), 82-89.
40. Arzibayev, Q. (2023). THE APPEARANCE OF MOTIVES FOR SPORTS ACTIVITY IN ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 2(10), 694-704.
41. Arzibayev, K. O., & Aralov, S. A. (2016). Physical culture and social importance of sport in educating the young by the principles National Concept. In *Scientific achievements of the third millennium* (pp. 23-24).
42. Arzibayev, Q. (2023). O 'smir sportchilarda sport bilan shug'ullanish motivlarini o 'rganish. *Sport ilm-faning dolzarb muammolari*, 1(3), 18-25.